“O‘zkimyosanoat” AJ Boshqaruvi raisi tizimdagi yoshlar bilan bevosita muloqot qildi

// 18.12.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-boshqaruvi-raisi-tizimdagi-yoshlar-bilan-b



Joriy yilning 18-dekabr kuni Chirchiq kimyo-industrial texnoparkida 2024-yil – “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” sarhisobi hamda Respublika bo‘yicha o‘tkazilayotgan “O‘zbekiston yoshlari forumi-2024” tadbirlari doirasida “O‘zkimyosanoat” va “Maxam-Chirchiq” aksiadorlik jamiyatlari boshqaruvi raislari ishtirokida “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi tashkil etildi.

Uchrashuvda “Maxam-Chirchiq” AJda va faoliyat yuritayotgan 200 nafardan ortiq yoshlar hamda kimyo yo‘nalishida ta’lim olayotgan iqtidorli talabalar ishtirok etdi.



Ta’kidlash joiz, hozirda “O‘zkimyosanoat” AJ markaziy apparati hamda tarmoq korxonalarida 28 mingta yaqin ishchi-xodimlar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ulardan 5305 nafarini yoshlar tashkil etadi. Jamiyat yoshlarining 60 nafari rahbar lavozimlarida faoliyat olib bormoqda. Joriy yilda tizim korxonalarida yoshlarga oid davlat siyosati doirasida 380 ta intellektual, sport hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilgani Jamiyatda yoshlarga qaratilayotgan e’tibordan dalolat beradi.



Ochiq muloqot tarzida o‘tgan tadbir tizimdagi yoshlar bilan samimiy suhbat orqali ularning ichki dunyosiga nazar solish, qiziqishlarini o‘rganish hamda tahlil qilish orqali muammolarini hal qilish maqsadlariga qaratildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Boshqaruvi raisi Odil Temirov o‘z so‘zida mamlakatimiz kimyo sanoati sohasida faoliyat olib borayotgan barcha yosh kadrlarni qo‘llab-quvvatlash, sohada yoshlar ulushini yanada oshirish, ularga ish sharoitlarini yanada yaxshilish borasidagi sa’y-harakatlar bundan keyin ham faol davom ettirilishini ta’kidlab o‘tdi.



Faol, tashabbuskor hamda iste’dod egalari korxonalarda yoshlarga oid davlat siyosati bo‘yicha olib borilayotgan ishlar haqida o‘z fikrlarini bayon qilishdi hamda yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash hamda imkoniyatlar yaratishga qaratilgan takliflarni bildirishdi.



Yoshlar tomonidan ilgari surilgan tashabbus va takliflarni amaliyotga joriy qilish, shu bilan birga, aytib o‘tilgan muammolarni hal etish bo‘yicha yo‘l haritasi ishlab chiqiladigan hamda ijrosi ta’minlanadigan bo‘ldi.

Tadbir davomida yuqori natijalarni qo‘lga kiritgan bir qator faol yoshlar taqdirlandi.


Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26


Uzkimyosanoat
RAHBAR VA YOSHLAR
UCHRASHUVI
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati